



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTORLARINING PROFESSIONAL O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Temirov Xushnud Jamolovich

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13989484>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15- Oktyabr 2024 yil
Ma'qullandi: 20- Oktyabr 2024 yil
Nashr qilindi: 25- Oktyabr 2024 yil

KEY WORDS

*professional o'z-o'zini
rivojlantirish, kompleks kasbiy
portret, formal, noformal,
informal, o'z-o'zini baholash.*

ABSTRACT

*mazkur maqolada Maktabgacha ta'lim tashkilotlari
direktorlarining professional o'z-o'zini
rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari haqida
fikir-mulohazalar yuritiladi.*

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining professional o'z-o'zini rivojlantirishining dolzarbligi hozirgi ta'lim tizimining o'zgarishi va innovatsion yondashuvlar talablari bilan bog'liqdir. Zamonaviy jamiyatda maktabgacha ta'lim-taribaya tizimiga qo'yilayotgan talablarning muntazam o'zgarishi, bu jarayonlarda direktorlarning raqobatbardosh bo'lishi uchun doimiy rivojlanish zaruratini yuzaga keltiradi. Respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish va rahbar kadrlarni malakasini oshirish bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar mamlakatda sifatli ta'lim berish, innovatsion yondashuvlarni joriy qilish va rahbarlarning professional rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan.

"Zamonaviy rivojlanish davrida zamon talabiga javob bermay qolgan o'quv modullarini, maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining ehtiyojidan kelib chiqib takomillashtirish va rivojlantirishni ta'minlashning roli va ahamiyatini qayta ko'rib chiqilishi kerak. Jamiyat, ishlab chiqarish, ilm-madaniyat rivojlanishi muammolari ta'lim mazmunida o'z aksini topishi kerak. Ta'lim kelajak zaruriyatlari bilan oldindan aniqlanishi lozim"[1].

Hozirgi davr talabi turli tuman uzluksiz ta'lim ta'minoti uchun zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishni talab etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining ehtiyojga asoslangan uzluksiz malaka oshirish jarayonida qo'shimcha imkoniyatlar va afzalliklar yaratish, zamonaviy malaka oshirish texnologiyasini mutlaqo yangi tamoyillar bilan boyitishni ijtimoiy pedagogik muammolari quyidagilar:

- an'anaviy malaka oshirishdan, mustaqil va ehtiyojga asoslangan zamonaviy malaka oshirish faoliyatiga;
- nazariy ma'lumotlarni berishdan muhokama, debat, trening va amaliy mashg'ulotlardagi hamkorlikdagi ijodiy izlanishga;

- ta'lim olayotganlarga chegaralangan tarzda yordam berishdan keng masshtabli ta'lim xizmatlariga;

- bitta diplomlilikdan, mutaxassis kompleks kasbiy portretini tashkil etuvchi ko'p diplomlilik va sertifikatlariga o'tish.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining ehtiyojga asoslangan uzluksiz malakasini oshirish tizimida direktorning kasbiy kompetentligi bu ta'lim natijasidir.

Boshqaruv muhitining yuqori dinamikligi direktorlarning ehtiyojga asoslangan uzluksiz malaka oshirishi dolzarb ekanligini bildiradi:

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlari o'z bilimi ustida butun umr ishlashi kerak. Sotsiologik tadqiqotlar direktorning malaka oshirish muassasalarida har 4-5 yilda olgan bilimlari tez eskirishi, rivojlanib borayotgan davrda direktorlarning boshqaruv ehtiyojlari yangi ma'lumotlarni talab etishi haqida dalolat beradi.

Hozirgi kunda, maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining malaka oshirish jarayoni davlat buyurtmasi asosida maktabgacha ta'lim standartlari, o'quv rejalari, dasturlari asosida tashkil etiladi.

Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda uzluksiz ta'lim tashkilot faoliyatini takomillashtirishning asosiy sharti hisoblanadi. Masalan, Yevropaning deyarli barcha mamlakatlarida malaka oshirish majburiyat hisoblanadi. Lyuksemburg va Ispaniyada malaka oshirish ixtiyoriy bo'lib agar amalga oshirilsa qo'shimcha ish haqi oladilar aksi bo'lsa, ularning martaba va ish haqiga ta'sir qiladi. Angliyada hech qachon bizning malaka oshirish institutlarimizga o'xshash tuzilmalar bo'lmagan. Taxminan o'n yil oldin ta'lim rahbarlarini tayyorlash milliy instituti paydo bo'ldi, ammo u bizning tizimdan farq qiladi. O'quv jarayonlari har doim ham institutda tashkil etilmaydi. Ko'p hollarda ta'lim tashkilotining o'zida tashkil etiladi. Ushbu yondashuvda ta'lim tashkiloti rahbarlarining manfaatlari hisobga olinadi va dasturlarning sifatini qat'iy nazorat qilishadi. Finlyandiyada ta'lim tashkiloti rahbari uchun ixtisoslashtirilgan malaka oshirish tizimi mavjud emas, chunki ushbu lavozimga nomzodlarni tanlash direktorlarning o'zlarini kerakli kasbiy fazilatlariga ega ekanligini isbotlagan odamlar bo'lishi taxmin qilinadi. Direktorlar mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan tashkil qilingan kurslarda amaliyot o'taydilar yoki turli seminarlarda o'qitiladi [1].

Finlyandiya ta'lim tashkilotlarida jamoaning innovatsion tajriba almashishning rivojlangan tizimi mavjud. Singapurda malaka oshirishning murakkab 70-20-10 modeli mavjud bo'lib, davlat xizmatlari agentligi tomonidan amalga oshiriladi. O'rtacha yuz soatli malaka oshirish kursi besh bosqichda amalga oshiriladi. Mazkur besh bosqichning so'ngisi hayot davomida ta'limdir.

Singapur mo'jizasi misolida qabul qilingan ta'lim modeli butun umr davomida ehtiyojga asosan uzluksiz malaka oshirishi "maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining uzluksiz kasbiy rivojlanishi" kabi talqin etiladi.

Zamonaviy jamiyatda, maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori malaka oshirishga bo'lgan doimiy ehtiyoji ahamiyati muhim o'rin tutadi. Malaka oshirishning asosiy vazifasi direktorlarning mustaqil rivojlanishi uchun ularning ta'limga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqib sharoit yaratishdan iborat. "Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining ehtiyojga asosan uzluksiz malakasini oshirishni takomillashtirish bir qator tashkiliy-uslubiy, axborot-didaktik va didaktik-uslubiy muammolarni o'rganish va ustida ishlashni talab etadi".

"Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining ehtiyojga asoslangan uzluksiz

malakasini oshirish jarayonida nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish muammolari quydagilar:

maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlari malaka oshirish rejasi har yil boshida maktabgacha ta'lim vaziri tomonidan tasdiqlangan rejaga asosan amalga oshirilishi, maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori uch yilda bir marta malaka oshirish kurslarida ishtirok etishi; maqsadlari, vazifalari, yo'nalishlarini tushunish va ajratish);

uch yilda bir marta o'qitish bugungi kun talablariga javob bermay qolishi, axborot hajmining keskin oshishi maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining malaka oshirishga bo'lgan ehtiyojlarini inobatga olgan holda;

maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining boshqaruv madaniyatini takomillashtirish, xulq-atvor mezonlarini belgilash va o'z-o'zini baholash tizimi yo'qligi sababli malaka oshirishning zaruriyatiga mos emasligi;

maktabgacha ta'lim tizimi darajasida rahbar kadrlar malakasini oshirish bo'yicha harakatlarni muvofiqlashtirish va mobilizatsiyasining yetarli emasligi.

"Tashkiliy-uslubiy muammolar direktorlarning uzluksiz malaka oshirishini va shaxsiy rivojlanishini ta'minlashning keyingi takomillashuviga tegishlidir: direktorlarining formal, noformal va informal ta'limi".

Formal – malaka oshirish tarkibiga institut o'qituvchilari, ekspertlar va yordam beruvchi tyutorlar kiritilgan, sertifikat beradigan kurslar.

Noformal – malaka oshirish, qisqa kurslar, tanlov fanlar, sayyor kurslardagi izlanish jarayonlaridagi jihat. Maktabgacha ta'lim – malaka oshirish hamkorligi. Umumiy qiziqishlar, modullar, innovatsiyalar bo'yicha tarmoqlar. Amaliyotlar hamjamiyati.

Informal – malaka oshirish, individual bo'lib o'z ichiga quyidagilarni oladi: o'zaro tajriba almashishlar, bir martalik ma'ruzalar, oiladagi suhbat, ixtisoslik jurnallarni o'qish, televideniye, video, rejalashtirilmagan tasodifiy suhbatlar, hobbii, qiziqishlar.

Malaka oshirishning noformal va informal shakllari odatda malaka oshirish institutida ananaviy va masofaviy tarzda kasbiy rivojlanish monitoringi elektron tizimi orqali amalga oshiriladi. Biroq bu tajribada direktorlarning malaka oshirishga bo'lgan shaxsiy ehtiyojlari asosida uzluksiz malaka oshirishlari uchun imkoniyatlar mavjud emas. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining malakasini oshirish ikki bosqichda amalga oshiriladi: mustaqil ta'lim va ixtisoslashgan tashkilotlarda malaka oshirish. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari mustaqil ta'lim olish doirasida malakasini oshirish doimiy ish joylarida auditoriyadan tashqari faoliyati doirasida olib boriladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining professional o'z-o'zini rivojlantirishining dolzarbligi zamonaviy ta'lim muhitining o'zgarishi, raqobatbardoshlikni oshirish zarurati va ta'lim sifatiga bo'lgan yuqori talablar bilan bog'liq. Direktorlarning o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilab borishi ta'lim tashkilotlarining muvaffaqiyatiga va bolalarning ta'lim olish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kasimova Sh.N. Design of vocational training of managers and pedagogical personnel. // Pindus Journal Of Culture, Literature, and ELTISSN: 2792-1883 Volume11// Page 11-16. <https://literature.academicjournal.io>

2. Kasimova Sh.N. Learning business game as an effective from of organization of the process of advancing the process of leaders of preschool educational organizations. // The American journal of social science and education innovations. ISSN-2689-100x IMPACT FACTOR 2021:5.857 Page 595-599. <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03/ssue04-97>
3. Kasimova Sh.N. Conceptual approaches to the organization and content of the process of advanced training for heads of preschool educational institutions. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences (EJRRES): Accepted Papers 2020 Vol. 8 No. 8, 2020 ISSN 2056-5852 Page 120-122 <http://www.idpublications.org>.

